

## INGLIZ TILINI O'RGANISHDA SUN'IY INTELEKT VA MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

**G'ofirova Sarvinoz Ma'rufjon qizi**

Andijon davlat chet tillari instituti 1-kurs talabasi  
gofirovasarvinoz@gmail.com

**Iminova Shahnozabegim Bahodirovna**  
Andijon davlat chet tillari instituti dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishda sun'iy intellekt, mobil ilovalarning qulayligi, ulardan foydalanishda keng tarqalgan xatolar va oson til o'rganish ko'nikmalari, zamonaviy texnologiyalarning ta'limdagi o'rni qay darajada ekanligi, til o'rgatuvchi ilovalarning keng qamrovliligi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, mobil ilova, elsa speak, dulingo, memrise, rosetta stone, youglish.

**Abstract:** This article examines artificial intelligence in learning English, the convenience of mobile applications, common mistakes in their use, and easy language learning skills, the role of modern technologies in education, and the wide range of language learning applications.

**Key words:** artificial intelligence, app, elsa speak, duolingo, memrise, rosetta stone, youglish

**Аннотация:** В данной статье рассматривается искусственный интеллект в изучении английского языка, удобство мобильных приложений, типичные ошибки при их использовании, а также простые навыки изучения языка, роль современных технологий в образовании и широкий спектр приложений для изучения языка.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, мобильное приложение, elsa speak, duolingo, memrise, rosetta stone, youglish.

### KIRISH

Bugungi kunda ingliz tilini xalqaro darajada bilish zamon talabiga aylangan. O'zbekiston ta'lim tizimida ingliz tili fani strategik ahamiyat kasb etmoqda. 2012-yilda qabul qilingan Prezident qarori hamda 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarorida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'qitish sifatini oshirish, zamonaviy o'quv resurslarini yaratish va ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish belgilab qo'yilgan. Shuning uchun ham, bog'cha, maktab, oliy ta'limda o'quvchi-talabalarga zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalangan holda bilim berilmoqda. Shuningdek, o'quvchilar sun'iy inetelekt, mobil ilovalar va platformalardan foydalangan holda mustaqil ravishda ingliz tilini o'rganishmoqda, chunki ingliz tilini o'rganishda sun'iy intellektidan foydalanish o'quvchilarning o'rganish jarayonini osonlashtiradi va shaxsiylashtirilgan ta'lim olish imkoniyatini beradi.

**Sun'iy intellekt o'zi nima?**

**Sun'iy intellekt (AI)** – bu kompyuter tizimlari orqali insonning o'rganish, fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini taqlid qiluvchi texnologiya. Bu soha kompyuterlarga tildan foydalanish, muammolarni yechish, ko'rish, nutqni tanib olish va o'z-o'zidan o'rganish kabi insoniy vazifalarni bajarish imkonini beradi. Ta'lim sohasiga sun'iy intellektning kirib kelishi o'qituvchi va o'quvchilar uchun bir qancha qulayliklarni keltirib chiqardi. O'quvchi yoshlar ingliz tilini mustaqil o'rganishda AI ilovalaridan foydalanishlari mumkin.

**Duolingo** – xorijiy tillarni o'rgatuvchi veb-sayt va mobil ilova bo'lib foydalanuvchilar oraliq takrorlash yordamida so'z boyligi, grammatika va talaffuzni mashq qilish uchun o'ziga xos ko'nikmalarga ega bo'lgan maqsadli tillariga moslashtirilgan tarmoqlardan foydalangan holda o'rganadilar. Ko'nikmalar doirasidagi mashqlar yozma tarjima, o'qishni tushunish, nutqni tushunish va qisqa hikoya mashqlarini o'z ichiga oladi.

**Elsa speak** - ingliz tili talaffuzini to'g'irlashga moslashgan mobil ilova. So'z aytish orqali AI talaffuzni tahlil qilib, xatolarni ko'rsatadi.

**Memrise** - foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan til o'rgatuvchi platforma bo'lib, videolarni qo'yib berish orqali so'z boyligini oshiradi, so'zlarni takrorlash uchun vaqtni AI ning o'zi belgilaydi bu esa oson so'z yodlash imkonini beradi. Rosetta stone - ingliz tilini ona tilidan tarjimasiz tabiiy ravishda o'rgatadi. Eshitish, ko'rish va gapirish orqali kontekstda o'rganadi.

**Youghlish + AI chatbot** - you tubedan videolarni haqiqiy tafaffuzini eshittiradi gapirish ko'nikmasini oshirishga yordam beradi, AI esa you tubedan eshitgan so'zlar orqali gap tuzishni (grammatikani) o'rgatadi.

**Intelektual o'qitish tizimi (Intelligent teaching system) -**

O'zining bilimlar bazasini to'ldirish uchun vositalar majmuiga ega bo'lgan intellektual tizim. O'qitishning ikkita, o'qituvchi bilan, o'qituvchisiz usuli bo'lishi mumkin. Ingliz tilini sun'iy intellekt orqali o'rganishning juda ko'p samarali jihatlari bor.

Masalan, **vaqtni tejash** - istagan joyida platformalardan foydalanib o'rganishi mumkin. Vaqtini sarflab biror joyga borib kelmaydi bu esa samaradorlikni ikki barobarga oshiradi ya'ni tejalgan vaqt evaziga darsni muhim o'zlashtiradi.

**Hayajon va qo'rquvni yengish** - Ayrim o'quvchilar xato qilishdan qo'rqadi, ustozga bilganini aytmaydi va o'rganishda qiyinchilikka duch keladi bunday holda o'quvchi AI chatbot yoki ChatGPT bilan suhbat qilish, yozishish orqali grammatikasini o'stiradi ya'ni AI ilovalar ularning xatolarini tahlil qilib beradi. Bu esa o'quvchida hayajonini kamaytiradi.

**Talabalar xatosini kamaytiradi.** Sun'iy intellekt xatolarni topish tahlil qilish xususiyatiga ega. Talabalarda grammatik, fonetik xatolarni topadi ularga to'g'ri ma'lumotni taqdim etadi. Bundan tashqari AI tilni baholash qobilyatiga ega. U o'quvchiga bergan testlari, grammatikasi orqali uning darajasini aniqlab, baholab bera oladi. Natijasi past yoki balandligiga qarab o'ziga mos kitoblarni va grammatikani tavsiya qiladi. Eng qulaylik tarafi har doim mavjudligi ya'ni 24/7 ishlashida, bu o'quvchiga istalgan payt undan foydalanish imkonini beradi va doimiy o'rganishni, mustahkam tartibni ta'minlaydi, qoldirilgan darsni istalgan vaqtda

o'rganishga yordam beradi. Ingliz tilini o'rganishda sun'iy intellektning ko'p foydalari bo'lgani kabi kamchiliklari ham mavjud. AI dan foydalanishda keng tarqalgan muammolardan biri bu AI ni boshqara olmaslikdadir. Ya'ni foydalanuvchilar unga ichki kechinmalarini, xissiyotlarini aytishi sabab ular AI ni emas, balki AI ularni boshqarishiga sabab bo'ladi. Talabalar AI dan faqatgina til o'rganish vositasida foydalanish kerak. AI dan ma'lumotlarni olayotganda ularni tekshirib, tahrirlab olmasliklarida. Intelekt ularga xato yoki eskirgan ma'lumotni berishi mumkin. AI foydalanuvchilari, til o'rganuvchilar intellektidan olgan ma'lumotlarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlab olishi, ma'lumotlarni ko'zdan kechirib o'rganishlari talab etiladi.

Shuningdek, platformalardan foydalanishda bir qancha cheklovlar bor. Masalan, AI dan ko'proq foydalanmoqchi bo'lganida uni pro yoki kuchliroq versiyasini sotib olishga to'g'ri keladi, ayrim o'rganuvchilar esa bunday texnik vositalarga ega bo'lmaydi bu yetarlicha o'rganishni ta'minlay olmaydi. Internet, mobil qurilmalar bilan bo'lgan muammo AI orqali tilni mukammal o'rganishga cheklov qo'yadi. Talabalarda dangasalikni kuchaytirishi. Talabalar AI dan bilmagan narsalarini o'rganish o'rniga tayyor ko'chirmakashlik qilishlari mumkin. Bunday holatlar kelajak avlodlar uchun salbiy ta'sirni, AI ga qaramlikni keltirib chiqaradi.

Yuqorida AI dan foydalanishning afzallik va kamchiliklarini ko'rib chiqdik. Zamonaviy texnologiyalar ingliz tilini o'rganishda kech imkoniyatlar yaratib beradi. Sun'iy intellekt (AI) darslarni kreativ va ma'lumotlarga boy qilib beradi. Qolaversa bu platformalar darsni o'z darjangizga moslashtirib, tezkor fikr berishni ta'minlaydi. Umuman olganda, AI dan bemalol til o'rganish, ma'lumotlar bazasi sifatida foydalanish odamlarga ancha qulaylik beradi. Shu bilan birga, undan ehtiyotkor foydalanishimiz ham talab etiladi.

Xulosa qilib aytadigak bo'lsak, ingliz tilida sun'iy intellektidan foydalanish darslarni qiziqarli va kreativ o'tishga, o'zgacha yondashuvga undaydi. Sun'iy intellekt o'rganishni shaxsiylashtirilgan, qulay va samarali qilish orqali ta'limni rivojlantirish imkoniyatiga ega. Kelajakda ta'limda sun'iy intellektidan foydalanish, undan samarali foydalanish usullar kengayishi kutilmoqda.

Sun'iy intellekt o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida baholash uchun osonlik tug'diradi. O'qituvchi birdaniga hamma bolalarni vazifalarini tekshira olmaydi, shunda AI ga to'g'ri ma'lumot joylab undan tekshirish, baholash vazifasida foydalanish mumkin. Shunday qilib sun'iy intellekt o'quvchilarga til o'rgatish, baho tekshirish vositasida balki ishni osonlashtirish, shaffoflikni ham ta'minlash imkoniyatiga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-son qarori. (2021-yil 19-may). "Xorijiy tillarni o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
2. "Sun'iy intellekt terminlari inglizcha - o'zbekcha tarjima izohli lug'ati" Andijon davlat universiteti nashriyoti - Andijon 2022
3. [uz.wikipedia.org](http://uz.wikipedia.org)
4. [najottalim.uz](http://najottalim.uz)

5. Duolingo (2025) How Doulingo uses AI to help you learn a new language. Duolingo blog. <https://blog.duolingo.com>
6. ChatGPT (2025) How OpenAI's ChatGPT is transforming language learning. OpenAI Blog. <https://openai.com>
7. International journal of scientific researchers. (Researcher club)
8. [scientific-jl.com](https://scientific-jl.com)